



FARIDA AFRUZ SHE`RIYATINING LINGVOESTETIK XUSUSIYATLARI

Ro`ziqulova Nilufar

BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasи

2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Bugungi tilshunoslik sohasi rivojlanib borayotgan bir davrda uning bir tarmog'i hisoblanmish lingvoestetika yo`nalishi yangi tarmoq sifatida tilshunoslik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolamizda o'zbek she`riyatining ardoqli vakili Farida Afruz she`riyati hamda uning lingvoestetik jihatlari lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi.

Kalit so`zlar: Farida Afruz, she`riyat, lingvoestetik xususiyat, lingvistik tadqiq, lingvoestetika.

LINGUO-AESTHETIC OF FARIDA AFRUZ'S POETRY

Rozikulova Nilufar

2nd stage graduate student of BuxSU

Abstract. At a time when the field of linguistics is developing today, the direction of linguoesthetics, which is considered one of its branches, is gaining importance in the development of linguistics as a new field. In this article, the poetry of Farida Afruz, an honored representative of Uzbek poetry, and its linguistic and aesthetic aspects are studied from a linguistic point of view.

Keywords: Farida Afruz, poetry, linguo-aesthetic features, linguistic research, linguo-aesthetics.


ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОЭЗИИ ФАРИДЫ АФРУЗ

Розикулова Нилуфар

аспирантка 2 ступени БухГУ

Абстрактный. В то время, когда сегодня развивается область языкознания, все большее значение в развитии языкознания как новой области приобретает направление лингвоэстетики, которое считается одной из ее ветвей. В данной статье поэзия заслуженной представительницы узбекской поэзии Фариды Афруз и ее лингвистико-эстетические аспекты исследуются с лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: Фарида Афруз, поэзия, лингвоэстетические особенности, лингвистические исследования, лингвоэстетика.





Bugungi kunda tilshunoslik fanining yangi tarmoqlari son va sifat jihatdan ortib bormoqda. Bu esa badiiy adabiyot namunalariga qayta-qayta murojaat etish zaruratinini ham yuzaga chiqarmoqda. Shunday yo'nalishlardan biri lingvoestetika bo'lib, tilshunoslikning mazkur yo'nalishi lingvopoetika, lingvostilistika, lingvosemantika bilan uzviy bog'liq hamda bir-birini to'ldirib boruvchi yo'nalishlar hisoblanadi. Bizning mazkur jajji tadqiqotimizda ham lingvoestetika, xususan, uning Farida Afruz she`riyatida aks etishi borasida so`z yuritiladi.

Lingvoestetika – so`zlarning talaffuz etilishi, ularning ma`nosini hamda unga bo`lgan hissiy munosabatlarni ilmiy tadqiq qiluvchi lingvistik fan hisoblanadi[3]. Lingvoestetikani yuzaga keltiruvchi predmetlari sifatida ritm, me`yor, tovushlar miqdori, qofiya, bayt, she`riy satrlar va shu kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, musiqiylik, ohangdorlik ham ushbu yo`nalish tadqiqot obyekti sanaladi. Aytib o'tish lozimki, lingvoestetika bevosita adabiyot sohasi bilan hamkorlikda ish olib borib, yuqorida qayd etilgan soha predmet va obyektlari ham aynan adabiyotga tegishli tushunchalar hisoblanadi[5]. Bu yangi tarmoqning shakllanishi miloddan avvalgi davrlardagi Gretsiya hududiga borib taqalsa-da, biroq uning tilshunoslikning yangi "avlodi" o'laroq ko`rinishi bugungi davr bilan bevosita aloqadordir. Qadimgi yunon olimlari ham tovushlardagi ohangdorlikka hamda ularga nisbatan kishilarning hissiy holatiga alohida e`tibor qaratishgan. Jumladan, "l" tovushi ravon talaffuz etilishi kishidagi ma'lum bir hislarni junbushga keltirsa, "r" tovushining biroz dag`al talaffuz qilinishi shaxs hissiyotidagi qo`rquvni uyg`otishi to`g`risida qator asarlarida ma'lumot berib o`tganlar. Bu esa ma'lum vaqt o`tgach, psixolingvistlarning tadqiqot obyektiga aylanib ulgurdi, aytish o`rinligi, ularning tadqiq ishlarida bu yo`nalish kishi ruhiyati bilan bevosita aloqador holda shakllantirildi[7]. Shu o`rinda bir savol tug`ilishi tabiiydir, xo`sh, tovushlarning bu jihatni kishi psixikasiga bevosita aloqador ekan, unda psixolingvistika hamda lingvoestetika o`rtasida qanday farq mavjud? Psixolingvistika tovushlarning kishi ruhiyatiga ta`sirini umumiy doirada o`rgansa, lingvoestetika esa ularning shaxs hissiyotiga ta`sirini xususiy jihatdan tadqiq qiladi.

Ma'lumki, Farida Afruz o`zbek she`riyatining taniqli vakillaridan biri hisoblanib, "Qirq kokilligim", "Iztirob ko`ylagi", "Tunlar isyoni", "Ko`zim manim", "O`zimdan o`zimgacha", "Ushshoq" kabi qator badiiy asarlar muallifi sanaladi[9]. O`z she`rlarida kishi hislarini baralla kuylagan ijodkor bugungi kunda barcha adabiyot muxlislarining sevimli shoirasidir. Qayd etib o'tish lozimki, shoira she`rlaridagi unli va undosh tovushlarning tartibi, ularning maromga solingan holda ifoda etilishi, ritmik jihatdan bo`yoqdorligi ijodkor she`riyatidagi lingvoestetik jihatlarni yorqinroq ochib berishga yordam beradi. Farida Afruzning "Bahor, kelaqol"[8] she`ridan olingan ushbu parchaning lingvoestetik tahlilini kuzatamiz:

Ko`klab ketdi

Ko`ksimdagи nayzalar,

Gul ochmoqda,



*Kiprigimda maysalar,
Bir bor kelar,
Ming yilda bu lahzalar,
Yor kelar kun keldi, bahor kela qol.*

Yuqoridagi baytda ishtirok etgan unlilar sonini quyidagich izohlash mumkin:

Unlilar	A	E	I	O	U	O`
Soni	18	5	10	6	4	2

Jadvalda keltirilgan unlilar miqdoridan ko`rinib turibdiki, kishi hissiyoti, ko`ngliga ta`siri jihatidan “a” unlisi yetakchilik qilsa, eng kam qo`llanilgan unli tovush sifatida “o`”ni aytish mumkin. Ularning miqdoriy darajalanishiga ko`ra quyidagicha joylashtirish mumkin: A - 18. I - 10. O - 4. E - 5. U - 4. O` - 2.

Bu bevosita estetik ma`lumot uzatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, she`riy matnda ifodalangan mazmun ham she`rning o`quvchi hissiyotiga ta`siri jihatdan o`rinlidir. Demak, tovushlar tizimi hamda she`r mazmuni shaxs hissiyotida tutgan o`rni borasida ajralmas bo`lib, ularni quyidagi ketma-ketlikda aks ettirish mumkin: *tovushlar tizimi>tovushlar tizimi asosida yuzaga kelgan she`r mazmuni*. Farida Afruzning yuqorida keltirilgan she`riy parchasidagi unli tovushlar ishtirokining joylashuv tartibi quyidagicha:

- I. o` a e i
- II. o` i a i a a a
- III. u o o a
- IV. i i i a a a a
- V. i o e a
- VI. i i a a a a
- VII. o e a u e i a o e a o

Yuqorida keltirilgan tovushlar tartibi yuzasidan lingvoestetik kuzatish olib boradigan bo`lsak, birinchi hamda beshinchi baytdagi xilma-xil unlilarning bir marotabadan qo`llanilishi kishida umidvorlik hamda keyingi sodir bo`lishi mumkin bo`lgan voqelikka qiziqish tarzidagi hissiyotlarni yuzaga keltiradi. Ikkinchi, to`rtinchi hamda oltinchi baytlardagi takror tovushlarning ketma-ket kelishi mazmun tugalligini ta`minlash bilan bir qatorda, tinglovchida his-hayajonni ta`minlab beruvchi muhim omil sifatida qayd etish mumkin.

Xulosa o`rnida aytishimiz mumkinki, lingvoestetikani ta`minlab beruvchi ikki omil mavjud bo`lib, ular tovushlar takrori hamda mazmun tugalligi – ushbu ikki vositani biridan ikkinchisisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Bu ikki unsur kishidagi emotSIONAL jihatlarni ta`minlab beruvchi voqelik sifatida namoyon bo`ladi. Farida Afruz she`riyatida namoyon bo`lgan bu jihatlar ham tinglovchini o`ziga jalb qiluvchi hamda uning hislarini junbushga keltiruvchi omil sifatida vujudga keladi.





14-SON

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Алексеева И.С. Введение в переводоведение. М.: Академия, 2004. 347 с.
- 2.Выготский А.С. Психология искусства. М.: Искусство, 1964. 392 с.
- 3.Кухаренко В.А. Интерпретация текста. М.: Просвещение, 1988. 191 с.
- 4.Потебня А.А. Мысль и язык// Русская словесность. Антология. М., 1997. – с.51 – 65.
- 5.Поцепня Д.М. Образ мира в слове писателя. СПб.: Изд-во С.-Пб. ун-та. 1997. 264 с.
- 6.Словарь иностранных слов. СПб.: «Виктория плюс», 2004. 816 с
- 7.www.fayllar.org
- 8.www.google.com
- 9.www.wikipedia.org

